

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANGAN HOLDA CHET
TILLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR**

Tuyakova Diliro'za Alijon qizi

O'zDJTU 3- bosqich talabasi,

Ilmiy maslahatchi: Xujaniyazova Hilola Turayevna

Katta o'qituvchi, O'zDJTU

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning chet tillarini o'qitish jarayonidagi o'rni va innovatsion yondashuvlar yordamida ta'lif samaradorligini oshirish yo'llari tahlil qilinadi. Mobil ilovalar, sun'iy intellekt asosidagi platformalar, interaktiv o'yinlar va onlayn resurslardan foydalanish orqali talabalar til kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: chet tili, raqamli texnologiya, innovatsiya, til o'rganish, interaktiv metod, onlayn ta'lif, gamifikatsiya.

Annotation. This article explores the role of digital technologies in foreign language teaching and how innovative approaches can enhance learning effectiveness. It presents practical strategies for using mobile apps, AI-based platforms, interactive games, and online resources to improve students' language competencies.

Keywords: foreign language, digital technology, innovation, language learning, interactive method, online education, gamification

Kirish

Globallashuv sharoitida xorijiy tillarni bilish zamonaviy inson uchun zarur ko'nikmaga aylanmoqda. Ayniqsa, ingliz tili bugungi kunda xalqaro aloqa, ilm-fan, texnologiya va biznes sohalarida asosiy vosita sifatida e'tirof etiladi. An'anaviy o'qitish uslublarining imkoniyatlari cheklangan bo'lib, ularning o'rnini asta-sekin zamonaviy raqamli texnologiyalar egallamoqda. Bu esa o'z navbatida o'qituvchilarning pedagogik mahoratini takomillashtirishni, o'quvchilar faoliyatini rag'batlantirishni va ta'lif samaradorligini oshirishni taqozo etadi. Maqolada aynan shu jarayonlar chuqur tahlil qilinib, raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari yoritiladi.

Tadqiqot davomida sifatli tahlil usullaridan foydalanildi. Pedagogik kuzatuv, so'rovnoma, tajriba-sinov ishlari orqali raqamli texnologiyalarning ta'siri baholandi. Ushbu metodologik yondashuvlar asosida quyidagi innovatsion vositalar tahlil qilindi: Duolingo, Memrise, Busuu kabi ilovalar foydalanuvchilarga mustaqil mashg'ulotlarni o'tkazish imkonini beradi. Google Classroom, Edmodo, Moodle orqali o'quv jarayoni samarali tashkil etilishi mumkin. ChatGPT, Grammarly, Quillbot kabilar yozma nutqni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Til o'rganishga o'yin elementlarini kiritish orqali o'quvchilarning qiziqishi ortadi va mustahkamlash darajasi yuqorilaydi.

YouTube'dagi darslar, TED Talks, tilga oid podcastlar eshitish ko'nikmalarini rivojlantirishda qo'llaniladi. Tahlil natijalari asosida o'quvchilarning raqamli vositalar orqali mustaqil ta'limga bo'lgan intilishi ortganligi aniqlandi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli texnologiyalar orqali chet tillarini o'rganish natijalari an'anaviy uslublarga nisbatan samaraliroq bo'lmoqda. Masalan, 2024-yilda o'tkazilgan eksperimentda ikki guruh talabalar 6 hafta davomida taqqoslandi (J.C.Richards, 2017). Eksperimental guruh zamonaviy texnologiyalar bilan shug'ullangan bo'lsa, nazorat guruhi odatdagi dars usullaridan foydalandi. Natijada,

Eksperimental guruhdagi talabalar 400 dan ortiq yangi so'zlarni o'zlashtirdi;

Grammatik topshiriqlarda to'g'ri javoblar ulushi 85%ni tashkil etdi; Og'zaki nutq bo'yicha ishonch 30%ga oshdi; Darsga qatnashish faolligi va darsdan keyingi mustaqil ishlarda ishtirok ikki baravar ko'paydi.

Ushbu natijalar raqamli texnologiyalar chet tillarini o'qitishda nafaqat qulaylik, balki yuqori samaradorlikni ham ta'minlashini ko'rsatmoqda. Innovatsion texnologiyalarni ta'limga joriy etishda qator omillarni hisobga olish zarur. Avvalo, o'qituvchining o'zi texnologiyalarni to'g'ri tanlay olishi va ulardan samarali foydalanishni bilishi kerak. Aks holda, texnologiyalar chalg'ituvchi vositaga aylanishi mumkin. Shuningdek, texnologik vositalardan foydalanishda quyidagi muammolar kuzatilishi mumkin: ba'zi hududlarda internet sifati past bo'lishi, talabalar va o'qituvchilar texnik vositalar bilan yetarli darajada ta'minlanmagan bo'lishi, ba'zida texnologik vositalar o'quv materiallarining mohiyatini to'liq yetkaza olmasligi.

Shunga qaramay, bu muammolarni texnik va metodik yondashuvlar orqali bartaraf etish mumkin. O'qituvchilar uchun maxsus treninglar tashkil etilishi, maktab va oliygohlarda texnologik infratuzilmani rivojlantirish orqali bu jarayonni kengaytirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar chet tillarini o'qitishda muhim o'rinni egallaydi. Ular orqali ta'lim jarayoni interaktiv, qiziqarli va samarali bo'ladi. Quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin: o'quv dasturiga mos innovatsion vositalarni tanlash va integratsiya qilish, talabalarning individual ehtiyojlarini hisobga olib, mos texnologiyalar bilan ta'minlash, ta'lim sifati monitoringini olib borish va texnologik vositalar samaradorligini baholash, o'qituvchilarning malakasini oshirish uchun raqamli texnologiyalar bo'yicha kurslar tashkil etish, ota-onalar va mahalliy hamjamiyatni texnologik o'zgarishlarga jalb etish.

Yuqoridagi tavsiyalar asosida kelajakda chet tillarini o'qitish yanada yuqori bosqichga ko'tarilishi aniq. Bu esa raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim tizimini tubdan isloh qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Richards, J. C. (2017). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press.
2. Wang, Y. (2020). Digital Tools for Language Learning. *Journal of Educational Technology*, 14(3), 45–52.
3. Brown, H. D. (2015). *Principles of Language Learning and Teaching*. Pearson Education.